

O‘ZBEK TILI MASHG‘ULOTLARIDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING AMALIY AHAMIYATI

Turdiyeva Nigora Zavqiddin qizi

ALISHER NAVOIY nomidagi ToshDO‘TAU

“O‘zbek tili ta’limi” fakulteti 4-bosqich talabasi

Annotatsiya. *Ta’lim mazmuni har qanday zamonda ham o‘zgarmasligi mumkin, biroq har bir davr, har bir jamiyat ta’limga o‘z talablarini qo‘yadi va shu nuqtai nazardan ta’limning maqsadi va zaruriy vositalari davrlar o‘tishi bilan takomillashib boraveradi. Ushbu maqolada o‘zbek tili mashg‘ulotlarida zamonaviy texnologiyalardan foydalanish usullarini hamda zamonaviy pedagogik texnologiyalar turli interaktiv metodlar vositasida o‘quvchilar bilan ishlash va bu orqali ularning til o‘rganishdagi faolligini oshirish usullari bayon etilgan.*

Kalit so‘zlar: o‘zbek tili, zamonaviy texnologiya, pedagogik texnologiya, usul, interaktiv metodlar, multimedia vositalari, orfografik tahlil, “Alifbo”, “O‘z o‘rningni top” metodlari...

KIRISH

Bugungi kunda zamonaviy texnologiya, yangi pedagogik texnologiya terminlari ta’limning eng faol so‘zlariga aylanib qoldi. Zamonaviy o‘qituvchi nafaqat yangi pedagogik va axborot texnologiyalaridan xabardor bo‘lishi, balki ularni o‘z faoliyatida samarali qo‘llay bilishi ham muhimdir. Jumladan, “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonunning 35- moddasida o‘quv rejalarini va o‘quv dasturlarini joriy etish jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalar, o‘qitishning innovatsion shakllari va usullari, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining qo‘llanilishi aytib o‘tilgan¹⁹.

¹⁹ O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni // Barkamol avlod - O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori. – Toshkent.: Sharq, 1998. – 23-b.

Qonunning ijrosi sifatida joriy darsliklar jahon andozalari asosida zamonaviy uslubda yaratilganligini aytishimiz mumkin.

MATERIALLAR VA METODOLOGIYA.

So‘nggi yillarda ta’lim jarayonida zamonaviy texnologiyalardan foydalanish masalasi tobora dolzarblashmoqda. Ta’lim jarayonida zamonaviy texnologiyalardan foydalanish nafaqat yangi texnologiya vositalari, balki o‘qitishning yangi shakl va usullari, ta’limga yangicha yondashuvdir.

Ma’lumki **texnologiya** (techne) so‘zi grek tilidan tarjima qilinganda san’at, mahorat, bilish ma’nolarini anglatadi, bular esa o‘z navbatida jarayonlardir.

Ta’lim texnologiyasi (odatda edutech yoki edtech deb qisqartiriladi) – bu o‘rganishni osonlashtirish uchun kompyuter texnikasi, dasturiy ta’milot, ta’lim nazaryasi va amaliyotidan birgalikda foydalanishdir.

Axborot texnologiyasi – obyekt, jarayon yoki hodisa (axborot mahsulot) holati haqida yangi sifatdagi ma’lumotlarni olish uchun foydalanadigan ma’lumotlarni (birlamchi) yig‘ish, ishlov berish va uzatish vositalari hamda usullari majmuasidir.

Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyasi – bu zamonaviy kompyuterlar va telekomunikatsion vositalaridan foydalanadigan, foydalanuvchi ishlashi uchun “do’stona” interfeysga ega bo‘lgan axborot texnologiyasi demakdir.²⁰

Barchamizga ma’lumki, bugun biz kompyuter texnologiyalari rivojlanib borayotgan davrning ayni cho‘qqisidamiz desak, aslo mubolag‘a bo‘lmaydi. Sababi, kompyuterdan foydalanish har bir sohaning asosiy talabiga aylanib bormoqda: biznes, marketing, ish yuritish, mashinasozlik va hattoki, o‘qitishda ham kompyuter texnologiyalaridan boxabar bo‘lish davr talabidir. Dars jarayonida o‘qituvchi mavzuni tushuntirish davomida multimedia vositalari (slayd, audiomatr va shukabilar)dan foydalansa, o‘quvchining o‘tilayotgan mavzuni tezroq tushunib olishiga yordam beradi, bu ilmiy jihatdan ham o‘z tasdig‘ini topgan, ya’ni multimedia vositalari yordamida o‘tilgan dars boshqa darslarga nisbatan tezroq yoddha qoladi.

²⁰ Muhamedova S.X, Abdullayeva M.D, Yuldasheva Sh.Sh, Eshmatova Y.B. O‘zbek tili va adabiyoti ta’limida zamonaviy axborot texnologiyalari. //O‘quv qo‘llanma, – T.: “Excellent Polygraphy”, 2020. – B. 8-9.

O‘zbek tili mashg‘ulotlarida foydalaniladigan zamonaviy texnologiyalarga axborot texnologiyalaridan tashqari dars davomida foydalanish mumkin bo‘lgan metod va usullar ham kiradi.

Bir qator rivojlangan mamlakatlarda ta’lim-tarbiya jarayonining samaradorligini kafolatlovchi zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llash borasida katta tajriba asoslarini tashkil etuvchi metodlar interaktiv metodlar nomi bilan yuritilmoqda. Interaktiv ta’lim metodlari hozirda eng ko‘p tarqalgan va barcha turdagи ta’lim muassasalarida keng qo‘llanayotgan metodlardan hisoblanadi. Shu bilan birga, interaktiv ta’lim metodlarining turlari ko‘p bo‘lib, ta’lim-tarbiya jarayonining deyarli hamma vazifalarini amalga oshirish maqsadlari uchun moslari hozirda mavjud. Amaliyatda ulardan muayyan maqsadlar uchun moslarini ajratib tegishlisha qo‘llash mumkin. Bu holat hozirda interfaktiv ta’lim metodlarini ma’lum maqsadlarni amalga oshirish uchun to‘g‘ri tanlash muammosini keltirib chiqargan.²¹

Buning uchun dars jarayoni oqilona tashkil qilinishi, ta’lim beruvchi tomonidan ta’lim oluvchilarning qiziqishini orttirib, ularning ta’lim jarayonida faolligi muttasil rag‘batlantirib turilishi, o‘quv materialini kichik-kichik bo‘laklarga bo‘lib, ularning mazmunini ochishda aqliy hujum, kichik guruhlarda ishslash, bahs-munozara, muammoli vaziyat, yo‘naltiruvchi matn, loyiha, rolli o‘yinlar kabi metodlarni qo‘llash va ta’lim oluvchilarni amaliy mashqlarni mustaqil bajarishga undash talab etiladi.

Interaktiv metodlar deganda – ta’lim oluvchilarni faollashtiruvchi va mustaqil fikrlashga undovchi, ta’lim jarayonining markazida ta’lim oluvchi bo‘lgan metodlar tushuniladi. Bu metodlar qo‘llanilganda ta’lim beruvchi ta’lim oluvchini faol ishtiroy etishga chorlaydi. Ta’lim oluvchi butun jarayon davomida ishtiroy etadi. Ta’lim oluvchi markazda bo‘lgan yondashuvning foydali jihatlari quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

- ta’lim samarasini yuqoriq bo‘lgan o‘qish-o‘rganish;
- ta’lim oluvchining yuqori darajada rag‘batlantirilishi;

²¹ <https://fayllar.org/3-mazu-oquvchilar-jamoasi--pedagogik-jarayonning-asosiy-shakli>

- ilgari orttirilgan bilimlarning ham e'tiborga olinishi;
- ta'lim jarayoni ta'lim oluvchining maqsad va ehtiyojlariga muvofiqlashtirilishi;
- ta'lim oluvchining tashabbuskorligi va mas'uliyatining qo'llab-quvvatlanishi.
- amalda bajarish orqali o'r ganilishi.²²

O'zbek tili ta'limi jarayonida quyidagi zamonaviy metodlardan foydalanishimiz mumkin:

Metod:

"Alifbo" metodi (2-3-sinflar uchun) – ushbu metod o'quvchilarning harflarni yaxshi o'zlashtirishiga ya'ni harflarni yodda saqlashiga va bevosita so'zlarda qo'llashga yordam beradi.

Metodni amalga oshirish uchu kerak bo'ladigan jihozlar: oq qog'oz, rangli qog'oz, karton, rangli qalamlar, plamaster, chizg'ich, ruchka, qora qalam.

Metodni amalga oshirishning tashkiliy jihatlari:

- oq qog'ozlardan 8-10 sm qilib qirqib olinadi;
- kesib olingan oq qog'ozchalarga o'zbek tili alifbosidagi harflarning barchasi va tutuq belgisi ham alohida qilib yasab olinadi;
- ulardan kichik kartochkalar hosil qilinib, u kartochkalarni o'quvchilarning bo'lingan guruhlariga tarqatiladi.

Metodimiz quyidagi bosqichlar asosida amalga oshiriladi:

- alifbodagi barcha harflarni qog'ozchaga tushirish;
- alifbo yuzasidan unlilar va undoshlarni topish;
- alifbo yuzasidan jarangli va jarangsiz harflarni topish;
- alifbo harflaridan "Toshkent" so'zini yasash;
- alifbo harflari yuzasidan "o'qituvchi" so'zini yasash;
- alifbo harflari yuzasidan "Men mifikda o'qiyman" gapni yasash;
- harflar yuzasidan "X" va "H" harflariga tegishli so'zni hosil qilish (hosil, xushnud, xabar, hatto, xohlayman, xulq, axloq, halol, xato).

²² Shayakubov Sh.K, Ayupov R.X. Interfaol ta'lim usullari. O'quv qo'llanma. – T.: "Tafakkur – Bo'stoni", 2012. – B. 79-80.

- alifbo harflaridan tutuq belgisi qatnashgan so‘zlarni yasash.

- “ng” harfi qatnashgan so‘zlarni yasash.

“Alifbo” metodining o‘quvchilar uchun afzalliklari quyidagilardir:

- o‘rgangan harflari yana qayta takrorlanadi.

- “X” va “H” harflarini yaxshi farqlay boshlaydi.

- nutqni o‘stirishga yordam beradi.

- kengroq firklashni boshlaydi.

- harflarni to‘g‘ri ajrata oladi.

- jamoa bilan ishlashni yaxshi o‘rganadi.

- o‘quvchini izlanishga, mustaqil fikrlashga undaydi.

Metod:

“O‘z o‘rningni top!” metodi (5-sinf uchun) quyidagicha amalga oshiriladi:

1. Ikkita hikoya tanlab olinadi.

2. Tanlab olingan hikoyalar bo‘laklarga bo‘linadi.

3. Hikoya bo‘laklari guruhlarga tarqatiladi.

4. Guruhdagi o‘quvchilar hikoya bo‘laklarini o‘qib, ularni mantiqan ketma-ketlikda joylashtirib, bir butun hikoya hosil qilishi kerak bo‘ladi.

5. Keyin guruhlar o‘z hikoyalari asosida savollar tuzib bir-biriga berishi kerak bo‘ladi.

“O‘z o‘rningni top!” metodining o‘quvchilar uchun afzalliklari quyidagilardir:

1. O‘quvchilarning fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi.

2. Jamoaning fikrini hurmat bilan eshitishni o‘rganadi.

3. Ma‘lumotlarni diqqat bilan tinglashni o‘rganadi.

4. O‘quvchining monologik nutqini rivojlantiradi.

5-sinf o‘zbek tili darsligidagi “Dam olish kunlarim” mavzusida “Beruniyning dam olish kunlari” va “Foydali maslahat” nomli matnlardan foydalanamiz. **“O‘z o‘rningni top” metodini** o‘tkazish uchun ushbu matnlardan foydalanamiz. Sinf o‘quvchilari ikki guruhgaga bo‘linadi. Har ikkala matn ham qog‘ozga chiqariladi. Matnlardagi nuqttagacha bo‘lgan har bir gap bo‘laklarga bo‘linib, guruhlarga aralash holda

tarqatiladi. Guruhlar matnlarni ketma-ketlikda joylashtiradi va butun bir matn hosil qiladi. Matndagi gaplarni hamma navbatma-navbat o‘qib beradi. Birinchi guruh avval o‘qiydi, ikkinchi guruh esa ularni tinglaydi. Keyin ikkinchi guruh o‘qiydi. Ikkala guruh o‘z matnlarini o‘qib eshittiradi. Guruhlar matn asosida savollar tuzadi va bir-biriga savollar beradi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari hali boshlang‘ich nuqtada ekanligini hisobga olgan holda topshiriqlar asosan, harflarni o‘rganishga va harflardan so‘zlar hosil qilishga qaratilgan bo‘ladi. 2-sinf o‘zbek tili mashg‘ulotlarida **so‘zlarni orfografik tahlil qilish** ham maqsadga muvofiqdir. Ushbu tahlilni har bir o‘quvchi alohida bajaradi.

So‘zlarni orfografik tahlil qilish quyidagicha amalga oshiriladi:

- doskaga bir o‘quvchi chiqariladi;
- o‘qituvchi tomonidan darslik asosida mavzuga oid bir so‘z aytildi (masalan, “**komyuter**” so‘zi);
- o‘quvchi so‘zni doskaga yozadi va so‘zda qatnashgan harflarni tasniflab beradi; tasniflangan so‘zga gap tuzish kerak bo‘ladi.

Namuna:

“**Kompyuter**” so‘zida **9 ta** harf mavjud.

unlilar – **3 ta**;

undoshlar – **6 ta**;

jarangli undoshlar – **m,r,y**;

jarangsiz undoshlar – **k,p,t**;

Menga dadam yangi **kompyuter** olib berdilar.

Hozirgi kunda ta’lim jarayonida interaktiv metodlar, innovatsion texnologiyalar, pedagogik texnologiyalarni qo‘llashga bo‘lgan qiziqish kundan-kunga ortib bormoqda, bunday bo‘lishiga sabablardan biri shu kungacha ta’limda o‘quvchitalabalarni faqat tayyor bilimlarni egallashga o‘rgatilgan bo‘lsa, zamonaviy texnologiyalarni qo‘llash esa ularni mustaqil fikrlashga kerakli masalalarni izlab topishga, tahlil va xulosa qilishga o‘rgatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

- 1.O‘zbekiston Respublikasining “Ta‘lim to‘g‘risida”gi Qonuni // Barkamol avlod - O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori. – Toshkent.: Sharq, 1998. – 23-b.
2. Umumiy o‘rta ta’limning Milliy o‘quv dasturi loyihasi, 2021.
3. Muhamedova S.X, Abdullayeva M.D, Yuldasheva Sh.Sh, Eshmatova Y.B. O‘zbek tili va adabiyoti ta’limida zamonaviy axborot texnologiyalari. //O‘quv qo‘llanma, – T.: “Excellent Polygraphy”, 2020. – B. 8-9.
4. Shayakubov Sh.K, Ayupov R.X. Interfaol ta’lim usullari. O‘quv qo‘llanma. – T.: “Tafakkur – Bo‘stoni”, 2012. – B. 79-80.
5. <https://fayllar.org/3-mazu-oquvchilar-jamoasi--pedagogik-jarayonning-asosiy-shakli>